

O‘ZBEK-INGLIZ TIL ALOQA ARALASHUVIDA ORFOEPIK INTERFERENSIYA

**Radjabov Nasir Nasimovich**

*O‘zbekiston Respublikasi*

*Jamoat xavfsizligi universiteti*

*Tillarni o‘rganish kafedrasidotsenti,*

*filologiya fanlari bo‘yichafalsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** *Maqola o‘zbek va ingliz tillarida unilarning orfoepik interferentsiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda chog‘ishtirilayotgan tillarda unilarning fonetik va fonologik xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning orfoepik xususiyatlaridagi o‘ziga xosliklarni aniqlash ham ahamiyatli sanalishi ishonarli misollar bilan izohlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *unli, fonema, fonetik xususiyat, fonologik jihat, orfoepik xususiyat, interferensiya*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tilga bo‘lgan e‘tibor tubdan o‘zgardi. Avvalo, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi mustahkamlandi. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rganish va ularni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish uchun etarli shart-sharoitlar yaratildi. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirish tizimini tubdan isloh qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-4797-sonli, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli, 2019 yil 21 oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-sonli, 2020 yil 20 oktyabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida» PF-6084-sonli, 2021 yil 19 maydagi «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5117-sonli kabi farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi «Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Natijada, “... xorijiy tillarni o‘rgatishni ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish”<sup>1</sup>, “xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish”<sup>2</sup> vazifalari kun tartibiga qo‘yildi.

<sup>1</sup> «Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-5117-сонли Ўзбекистон Республикаси президентининг Қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/5426736>

<sup>2</sup> «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини тақомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Манба: <https://lex.uz/docs/5058351>



Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlashda o‘zbek tili bilan xorijiy tillarni, xususan, ingliz tili tovush tizimini chog‘ishtirish, fonemalarning artikulyasion-akustik xususiyatlari bilan birga ularning orfoepik jihatdan o‘ziga xosliklarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonemalarning orfoepik xususiyatlari shakllanishida ularning fonetik va fonologik o‘ziga xosliklari ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillarida unliharflarning fonetik va fonologik xususiyatlari borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>3</sup>. Mazkur tadqiqotlarda unliharflarning fonetik va fonologik jihatlariga oid erishilgan natijalar asosida chog‘ishtirilayotgan tillarda unli fonemalarning orfoepik xususiyatlaridagi o‘ziga xosliklarni aniqlash ham ahamiyatli sanaladi.

O‘zbek va ingliz tillarida unli fonemalar son jihatdan jiddiy tafovutga ega bo‘lsa-da, yozuvda ular har ikkala tilda ham 6 ta unli harf bilan ifodalanadi, ammo bu unli harflarning orfoepiyasi (o‘qilishi) o‘zaro keskin farqlanadi. Ingliz tilida har bir unli harf to‘rtta bo‘g‘in turida (*Iturochiq bo‘g‘in, I tur yopiq bo‘g‘in, II tur ochiq bo‘g‘in (r+unli bo‘g‘in), II tur yopiq (r+undosh) bo‘g‘in.*) to‘rt xil fonema bilan talaffuz qilinadi. Masalan, “a” harfi I tur ochiq bo‘g‘inda /eɪ/ (take [teɪk]), I tur yopiq bo‘g‘inda /æ/ (fat [fæt]), II tur ochiq (r+unli) bo‘g‘inda /eə/ (rare [rɛə]), II tur yopiq (r+undosh) bo‘g‘inda /ɑː/ (hard [hɑːd]) fonemalari bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida esa bir unli harf har qanday bo‘g‘inda ham bir fonema bilan o‘qiladi (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Ingliz va o‘zbek tillarida unli harflar orfoepiyasi

Ingliz tili					O‘zbek tili		
unli harflar	U	Unli harflar orfoepiyasi				U	Unli harflar orfoepiyasi
	I	I	I	II	nli harflar	Sifat va miqdor belgisiga ko‘ra u yoki bu darajada farq qiladigan:	
	tur	tur	Itur	tur			
o	y	o	y				
chiq bo‘g‘in	opiq bo‘g‘i	chiq b	opiq b				

<sup>3</sup>Абдуазизов А.А. Сопоставительный анализ гласных фонем английского и узбекского языков (на основе рентгенографических фотографических данных): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1967. – 37 с.; Nasimovich R. N. Language Interference in Teaching English Diphthongs to Uzbek Learners //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 8. – С. 16-21.; Nasimovich R. N. Quality and quantity reduction //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 48-49.;Nasimovich R.N. A simple classification of English unstressed vowel phonological oppositions//Innovative developments and research education. – 2022. – С. 60.; Nasimovich R.N. Ўзбек тилида тил олди унлилар дистрибуцияси //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 117-120.; Nasimovich, R. N. . (2021). Phonological Oppositions of Unstressed Vowels in The Uzbek Language. *Middle European Scientific Bulletin*, 15. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.15.693>.; Radjabov N.N. Reduction in the English and Uzbek languages // Контактная информация организационного комитета конференции. – С. 73.; Раджабов Н. Н. Ўзбек тилида тил орқа унлилар дистрибуцияси // Science and pedagogy in the modern world: Problems and solutions – 2023. – Т. 1. – №. 1.; Раджабов Н. Н. УЎК (УДК, UDC) 811.111 ‘342. 41 Инглиз тилида унли фонемаларнинг позиция кўринишлари //Scientific reports of Bukara state university. – С. 114.; Раджабов Н. Н. Фонема тушунчасининг юзага келиш тарихи // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 305-308.; Раджабов Н. Н. Фонетические особенности безударных гласных в узбекском языке //Вестник Челябинского государственного университета. – 2016. – №. 9 (391). – С. 140-145.; Раджабов Н.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида унлилар интерференцияси //Aniqvatibiiyanlarmundarija.; Раджабов Н.Н. Ўзбек тилида унли фонемаларнинг позиция кўринишлари//Orientalrenaissance: Innovative, educational, naturalandsocialsciences. – 2022. – Т. 2. – №. SpecialIssue 26. – С. 650-652.; Раджабов Насир Насимович. (2023). С.Петербург фонология мактаби талқинида фонема назарияси. *Journal of New Century Innovations*, 41(2), 260-265. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/9777>; Раджабов, Н. Н. (2023). Ўзбек ва инглиз тилларида акустик жihatдан ўхшаш унлиларнинг ўзига хослиги. *Innovative development in educational activities*, 2(19), 253-261. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10016063>



		n	o'g'in	o'g'in		
i”	“ [aɪ] <i>fi</i> <i>ne</i> [fɑɪn]	[ɪ] <i>p</i> <i>in</i> [pɪn]	[aɪə] <i>t</i> <i>ire</i> [taɪə]	[z:] <i>bi</i> <i>rd</i> [bz:d]	i”	“ [ɪ] tovushi bilan o'qiladi: <i>kiy</i> [kɪy], <i>kir</i> [kɪr], <i>qir</i> [qɪr].
a”	“ [eɪ] <i>p</i> <i>ale</i> [peɪl]	[æ] <i>p</i> <i>at</i> [pæt]	[ɛə] <i>c</i> <i>are</i> [kɛə]	[ɑ:] <i>h</i> <i>ard</i> [hɑ:d]	a”	“ [ʌ] tovushi bilan o'qiladi: <i>pat</i> [pʌt], <i>cana</i> [sʌnʌ].
e”	“ [i:] <i>s</i> <i>cene</i> [s i:n]	[e] <i>t</i> <i>en</i> [ten]	[ɪə] <i>h</i> <i>ere</i> [hɪə]	[z:] <i>p</i> <i>er</i> [pz:]	e”	“ [e] tovushi bilan o'qiladi: <i>erk</i> [ɛrk], <i>seni</i> [senɪ].
o”	“ [əʊ] <i>h</i> <i>ope</i> [ həʊp]	[ɒ] <i>p</i> <i>ot</i> [pɒt]	[ɔ:] <i>c</i> <i>ore</i> [kɔ:]	[ɔ:] <i>c</i> <i>orn</i> [kɔ:n]	o”	“ [ɒ] tovushi bilan o'qiladi: <i>bor</i> [bɒr], <i>momo</i> [mɒ'mɒ].
u”	“ [u:]/ [ju:] <i>c</i> <i>ube</i> [ kju:b]	[ʌ] <i>b</i> <i>ut</i> [bʌt]	[ʊə]/ [ juə] <i>p</i> <i>ure</i> [pjʊə ]	[z:] <i>t</i> <i>urn</i> [t z:n]	u”	“ [ʊ] tovushi bilan o'qiladi: <i>tur</i> [tʊr], <i>turib</i> [tʊ'ɾɪb].
y”	“ [aɪ] <i>deny</i> [dɪ'nɑɪ ]	[ɪ] <i>m</i> <i>yth</i> [	[aɪə] <i>l</i> <i>yre</i> [	[z:] <i>m</i> <i>yrtle</i> ['mz:tl	o”	“ [o'] tovushi bilan o'qiladi: <i>to'r</i> [to'r], <i>to'ri</i> [to'ɾɪ].



		miθ]	larə]	]		
--	--	------	-------	---	--	--

Ingliz tilida har bir unli harfning bir nechta fonema bilan o‘qilishi o‘zbek tili uchun noodatiy ekanligi chog‘ishtirilayotgan tillarning tovush tizimlarida orfoepik interferensiyaga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ingliz tilida bir unli harf birikmasi ham talaffuzda bir nechta unli fonema orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, “ea” harf birikmasi head [hed] so‘zida [e], east [i:st] so‘zida [i:], great [gret] so‘zida [ei] tarzida talaffuz qilinadi. Ona tili talaffuz me‘yorlariga ko‘ra bir unli harfni og‘zaki nutqda bir xil talaffuz qilishga odatlangan o‘zbek til sohiblari ingliz tilida fonetik kontekstga bog‘liq holda turli xil o‘qiladigan bir unli harf yoki harf birikmasini barcha holatlarda bir xil tovush bilan talaffuz qilishlari tabiiy. Masalan, ingliz tilidagi “a” harfini ona tili ta‘sirida o‘zbek til sohiblari barcha o‘rinlarda bir xil – [æ] yoki [ei] tarzida talaffuz qilib xatoga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida aksariyat unli harflarning orfografiyasi o‘xshashligi ham o‘zbek til sohiblarining ingliz tili unli harflarini og‘zaki nutqda noto‘g‘ri talaffuz qilishlariga olib keladi. O‘zbek til sohiblari “a” harfi orqali /ʌ/ fonemasini, “i, e, o, u” harflari orqali /ɪ/, /e/, /ɒ/, /ʊ/ fonemalarini tasavvur qiladi. Natijada, ular ingliz tilidagi “a, i, e, o, u” unli harflarini turli fonetik kontekstlarda ham ona tili ta‘sirida bir xil – /ʌ/, /ɪ/, /e/, /ɒ/, /ʊ/ tarzida noto‘g‘ri talaffuz qilib, xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Demak, o‘zbek va ingliz tillarida unli fonemalarning orfoepik jihatlari ularning fonetik va fonologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til o‘rganish jarayonida ular muhim ahamiyat kasb etadi. Chog‘ishtirilayotgan tillarda unli harflarning orfoepik xususiyatlari o‘zaro keskin farq qiladi. Mazkur tafovutlarni oldindan aniqlash va ularni til o‘rganish jarayonida nazardan chetda qoldirmaslik unli fonemalarning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan orfoepik interferensiyasini oldini olishda ahamiyatli sanaladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Манба:// <https://lex.uz/docs/5058351>.

2. «Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги bosқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-5117-сонли Ўзбекистон Республикаси президентининг Қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/5426736>

3. Абдуазизов А.А. Сопоставительный анализ гласных фонем английского и узбекского языков (на основе рентгенографических фотографических данных): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1967. – 37 с.



4. Nasimovich R. N. Language Interference in Teaching English Diphthongs to Uzbek Learners //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 8. – С. 16-21.
5. Nasimovich R. N. Quality and quantity reduction //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 48-49.
6. Nasimovich R.N. A simple classification of English unstressed vowel phonological oppositions//Innovative developments and research education. – 2022. – С. 60.
7. Nasimovich R.N. Ўзбек тилида тил олди унлилар дистрибуцияси //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 117-120.;
8. Nasimovich, R. N. . (2021). Phonological Oppositions of Unstressed Vowels in The Uzbek Language. *Middle European Scientific Bulletin*, 15. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.15.693>.
9. RadjabovN.N. ReductionintheEnglishandUzbeklanguages // Контактная информация организационного комитета конференции. – С. 73.
10. Раджабов Н. Н. Ўзбек тилида тил орқа унлилар дистрибуцияси // Science and pedagogy in the modern world: Problems and solutions – 2023. – Т. 1. – №. 1.
11. РаджабовН. Н. УЎК (УДК, UDC) 811.111 '342. 41 Инглиз тилида унли фонемаларнинг позицион кўринишлари //Scientific reports of Bukara state university. – С. 114.
12. РаджабовН. Н. Фонема тушунчасининг юзага келиш тарихи //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 305-308.
13. Раджабов Н. Н. Фонетические особенности безударных гласных в узбекском языке //Вестник Челябинского государственного университета. – 2016. – №. 9 (391). – С. 140-145.
14. Раджабов Н.Н. Инглиз ва ўзбек тилларида унлилар интерференцияси //Aniqvatabiiyfanlarmundarija.
15. РаджабовН.Н. Ўзбек тилида унли фонемаларнинг позицион кўринишлари//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 26. – С. 650-652.
16. Раджабов Насир Насимович. (2023). С.Петербург фонология мактаби талқинидафонеманазарияси. *Journal of New Century Innovations*, 41 (2), 260-265. Retrieved from<https://newjournal.org/index.php/new/article/view/9777>
17. Раджабов, Н. Н. (2023). Ўзбек ва инглиз тилларида акустик жиҳатдан ўхшаш унлиларнинг ўзига хослиги. *Innovative development in educational activities*, 2(19), 253–261. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10016063>

